

# “TICT Conferences” PLATFORMASIDAN FOYDALANISH BO’YICHA QO’LLANMA


**1. Tizim imkoniyatlaridan foydalanish uchun bosh oynada “Login” tugmasi bosiladi.**





**2. Agar tizimda avval ro’yxatdan o’tgan bo’lsangiz e-mail va parolingizni kiritasiz va tizimga kirishingiz mumkin. Agar tizimda hali hisobingiz mavjud bo’lmasa “Create Account” tugmasini bosish talab etiladi.**




**3. Tizimda hisob yaratish uchun zarur maydonlar to’ldiriladi. ORCID bu bosqichda kiritish majburiy emas, hisob yaratilgandan keyin ham kiritilishi mumkin. Zarur maydonlarni to’ldirib bo’lgandan so’ng “Register” tugmasi bosiladi**




**4. Ro’yxatdan o’tish davomida kiritgan e-mail va parolni kiritish orqali tizimga kiriladi.**





**5. Tizimga kirganda “Account Not Activated” xabarini ko’rasiz, bu hali tizimda hisob faollashmaganini anglatadi. Buning uchun e-mail pochtangizga kirishingiz lozim. U yerda faollashtirish uchun Link kelgan bo’lishi kerak.**




**6. E-mailga kelgan xabardagi “Activate My Account” tugmasini bosish orqali akkauntingiz faollashtiriladi va ushbu pochta manzili sizning akkauntingizga bog’lanadi.**





**7. Tizimda TICT miqyosida o’tkazilayotgan konferensiyalarni izlashingiz va unga tezis yuborishingiz mumkin. Buning uchun “Find Conferences to Submit” tugmasi bosiladi.**



**8. Bu sizni yaqin sanalarda tizimda o’tkazilayotgan konferensiyalar haqidagi sahifaga (Bosh sahifaga) yo’naltiradi. U yerdan o’zingizga ma’qul konferensiyani tanlaysiz va Ushbu konferensiyaning nomi ustiga yoki nomi ostidagi “View Conference Details” tugmasini bosishingiz lozim.**





**9. Bu sizni konferensiya sahifasiga olib o’tadi. Bu yerda konferensiya haqidagi barcha ma’lumotlar bilan “About”, “Committees”, “Program”, “Speakers”, “Papers”, “Venue”, “Contact” qismlarida tanishishingiz mumkin. Bu sahifa konferensiya o’z ishini yakunlagandan so’ng ham saqlanib qoladi. Ya’ni ushbu sahifa orqali istalgan payt siz o’z tezisingizni yoki shu konferensiyadagi tezislarni ko’rishingiz mumkin bo’ladi.**








**10. Sahifa ostida “Submit a Paper” va “Register to Attend” tugmalari mavjud. “Submit a Paper” tugmasini bosish orqali siz o’z tezisingizni yuborishingiz mumkin bo’ladi. “Register to Attend” tugmasi bilan siz konferensiyada tezissiz, tinglovchi yoki kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun ro’yxatdan o’tishingiz mumkin.**





**11. “Submit a Paper” tugmasini bosilganda, siz ushbu konferensiyaga tezis yuborish qismiga yo’naltirilasiz. Bu yerda siz tezisga tegishli ma’lumotlarni to’ldirishingiz lozim bo’ladi. Tezis nomi, konfersiya sho’basi va annotatsiya qismi kiritiladi va “Next: Add Authors” tugmasi bosiladi.**



**12. Navbatdagi sahifada Mualliflar haqida ma’lumot to’ldiriladi. Agar mualliflar ko’p bo’lgan taqdirda “+Add Another Author” tugmasi bosish orqali qo’shish mumkin. Shu bilan birga konferensiyada ushbu tezisni kim taqdimot qilishi haqida belgilash uchun tegishli muallif ro’parasiga “Presenting Author” chekboksi yoqib qo’yilishi lozim.**





**13. Oxirgi sahifada Tezisga tegishli kalit so’zlar (“Keywords”), Foydalanilgan adabiyotlar (“References”) maydonlari to’ldiriladi. Bunda kalit so’zlar “,” (vergul) orqali ajratilishi lozim. References qismida har bir xatboshiga 1 ta foydalanilgan manba to’g’ri keladigan qilib joylashtiriladi. Bunda tartib raqami olib tashlanishi va faqat foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati o’zi kiritilishi lozim. Ushbu maydonlarni to’ldirish majburiy emas, lekin tezisning turli tizimlarda indekslanishini ehtimolini oshirishi maqsadida zarur hisoblanadi. “Upload Paper Document” maydoniga tezisingizning doc yoki docx formatdagi faylini yuklanadi va “Submit Conference Paper” tugmasi bosiladi. Tezisingiz statusini siz Profile Dashboard qismida kuzatib turishingiz mumkin.**




# “TICT Conferences” ПЛАТФОРМАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА ҚЎЛЛАНМА


**1. Тизим имкониятларидан фойдаланиш учун бош ойнада “Login” тугмаси босилади.**





**2. Агар тизимда аввал рўйхатдан ўтган бўлсангиз е-маил ва паролингизни киритасиз ва тизимга киришингиз мумкин. Агар тизимда ҳали ҳисобингиз мавжуд бўлмаса “Create Account” тугмасини босиш талаб этилади.**




**3. Тизимда ҳисоб яратиш учун зарур майдонлар тўлдирилади. ORCID бу босқичда киритиш мажбурий эмас, ҳисоб яратилгандан кейин ҳам киритилиши мумкин. Зарур майдонларни тўлдириб бўлгандан сўнг “Register” тугмаси босилади**




**4. Рўйхатдан ўтиш давомида киритган е-маил ва паролни киритиш орқали тизимга кирилади.**





**5. Тизимга кирганда “Account Not Activated” хабарини кўрасиз, бу ҳали тизимда ҳисоб фаоллашмаганини англатади. Бунинг учун е-маил почтангизга киришингиз лозим. У ерда фаоллаштириш учун Линк келган болиши керак.**




**6. E-маилга келган хабардаги “Activate My Account” тугмасини босиш орқали аккаунтингиз фаоллаштирилади ва ушбу почта манзили сизнинг аккаунтингизга боғланади.**





**7. Тизимда TICT миқёсида ўтказилаётган конференцияларни излашингиз ва унга тезис юборишингиз мумкин. Бунинг учун “Find Conferences to Submit” тугмаси босилади.**




**8. Бу сизни яқин саналарда тизимда ўтказилаётган конференциялар ҳақидаги саҳифага (Бош саҳифага) йўналтиради. У ердан ўзингизга маъқул конференцияни танлайсиз ва ушбу конференциянинг номи устига ёки номи остидаги “View Conference Details” тугмасини босишингиз лозим.**





**9. Бу сизни конференция саҳифасига олиб ўтади. Бу ерда конференция ҳақидаги барча маълумотлар билан “About”, “Committees”, “Program”, “Speakers”, “Papers”, “Venue”, “Contact” қисмларида танишишингиз мумкин. Бу саҳифа конференция ўз ишини якунлагандан сўнг ҳам сақланиб қолади. Яъни ушбу саҳифа орқали исталган пайт сиз ўз тезисингизни ёки шу конференциядаги тезисларни кўришингиз мумкин бўлади.**




**10. Саҳифа остида “Submit a Paper” ва “Register to Attend” тугмалари мавжуд. “Submit a Paper” тугмасини босиш орқали сиз ўз тезисингизни йуборишингиз мумкин бўлади. “Register to Attend” тугмаси билан сиз конференцияда тезиссиз, тингловчи ёки кузатувчи сифатида иштирок етиш учун рўйхатдан ўтишингиз мумкин.**




**11. “Submit a Paper” тугмаси босилганда, сиз ушбу конференцияга тезис йубориш қисмига йўналтириласиз. Бу ерда сиз тезисга тегишли маълумотларни тўлдиришингиз лозим бўлади. Тезис номи, конференция шўъбаси ва аннотация қисми киритилади ва “Next: Add Authors” тугмаси босилади.**



**12. Навбатдаги саҳифада Муаллифлар ҳақида маълумот тўлдирилади. Муаллифлар кўп бўлган тақдирда “+Add Another Author” тугмаси босиш орқали қўшиш мумкин. Шу билан бирга конференцияда ушбу тезисни ким тақдимот қилиши ҳақида белгилаш учун тегишли муаллиф рўпарасига “Presenting Author” чекбокси ёқиб қўйилиши лозим.**




**13. Охирги саҳифада Тезисга тегишли калит сўзлар (“Keywords”), Фойдаланилган адабиётлар (“References”) майдонлари тўлдирилади. Бунда калит сўзлар “,” (вергул) орқали ажратилиши лозим. References қисмида ҳар бир хатбошига 1 та фойдаланилган манба тўғри келадиган қилиб жойлаштирилади. Бунда тартиб рақами олиб ташланиши ва фақат фойдаланилган адабийётлар рўйхатини ўзи киритилиши лозим. Ушбу майдонларни тўлдириш мажбурий эмас, аммо тезиснинг турли тизимларда индексланишини эҳтимолини ошириш мақсадида зарур ҳисобланади. “Upload Paper Document” майдонига тезисингизнинг doc йоки docx форматдаги файли йукланади ва “Submit Conference Paper” тугмаси босилади. Тезисингиз статусини сиз Profile Dashboard қисмида кузатиб туришингиз мумкин.**

